

## EMAL GIPOPLAZIYASI

Yarashova Muhabbat Furqatovna <sup>1</sup><sup>1</sup> Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

Stomatologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi Yarashova Muhabbat Furqatovna

MAQOLA  
MALUMOTI

## ANNOTATSIYA:

## MAQOLA TARIXI:

Received: 23.01.2025

Revised: 24.01.2025

Accepted: 25.01.2025

## KALIT SO'ZLAR:

Emal gipoplaziyasi  
, tish emali, rivojlanish  
nuqsoni, genetik omillar,

ozuq moddalar  
yetishmovchiligi  
, infeksiya, tish  
sezgirligi, fluorid  
terapiya, plombalar  
qoplamalar.

Emal gipoplaziya sabablari , klinik belgilari  
diagnostika davolash usullari profilaktika. Tish  
emalining to'liq rivojlanmasligi, homiladorlik va  
bolalik davrida ozuq moddalar yetishmovchiligi,  
infeksiyalar, genetik omillar, Klinik belgilar : tish  
yuzasida oq va jigarrang dog'lar notekislik va  
sezgirlik . Davolash. fluoridli vositalar plombalar  
yoki qoplamalar qo'llash Profilaktika sog'lom  
ovqatlanish tish gigienasiga rioya qilish.

**KIRISH.** Emal gipoplaziyasi – bu tish emalining to'liq rivojlanmasligi yoki yetarlicha shakllanmasligi bilan tavsiflanadigan kasallikdir. Bu holat homiladorlik va bolalik davridagi turli xil omillarga bog'liq bo'lib, genetika, ozuq moddalarning yetishmasligi yoki infeksiyalar natijasida yuzaga keladi. Emal – tishning tashqi qatlami bo'lib, u tishlarni mexanik va kimyoviy zararlardan himoya qiladi. Emal gipoplaziyasi bo'lgan odamlarda ushbu qatlam to'liq shakllanmagani sababli, tishlar sezgir va nozik bo'lib qoladi, shuningdek, ular dog'lanishga va yemirilishga moyil bo'ladi. Bu kasallik tug'ma (genetik) bo'lishi yoki orttirilgan omillar (ozuq moddalarning yetishmasligi yoki bolalikda yuqumli

kasalliklar) natijasida rivojlanishi mumkin. Tishlar estetik va funksional jihatdan zarar koʻrganligi uchun bu kasallikni davolash va oldini olish muhimdir.

Emal gipoplaziyasining ikki turi mavjud:

1. Qoidalarga mos gipoplaziya (Selective Hypoplasia):

Bu turda tish emali faqat maʼlum bir qismlarda yoki qismida rivojlanmagan boʻladi. Odatda, emalning nozik boʻlgan qismi tishning yuqori yoki pastki yuzalarida yoki emalning boshqa bir qismlarida joylashadi. Bu holat koʻpincha yuqumli kasalliklar, stress, yoki bir qator sogʻliq muammolari tufayli yuzaga keladi.

2. Umumiy gipoplaziya (Generalized Hypoplasia):

Ushbu turda tish emali butunlay yoki keng tarqalgan joylarda rivojlanmaydi. Emalning yetishmasligi koʻplab tishlarni oʻz ichiga oladi va koʻpincha homiladorlik davrida oziq moddalar yetishmasligi yoki bola kasallanganida rivojlanadi. Bu shakllanishda emalning rivojlanishiga taʼsir qiluvchi bir qator omillar bor, masalan, kaltsiy, fosfor yoki D vitamini yetishmovchiligida



**Emal gipoplaziyasiga oid fotolavhalar**

Sabablari:

- Tug‘ma sabablari:
- Homiladorlik davridagi infeksiyalar yoki toksik ta’sirlar.

1. Ona organizmida kalsiy, fosfor yetishmovchiligi

2. Genetik kasalliklar.

3. Orttirilgan sabablari: D vitamini yetishmovchiligi (raxit).

Bolalikda o‘tkir yuqumli kasalliklar (masalan, qizamiq, qizilcha, skarlatina).

Oziq-ovqat yoki ichimliklarda fluor ortiqchiligi (fluoroz).

Metabolizmning buzilishi. Travmalar yoki homiladorlik vaqtidagi onaning tetrasiklin antibiotiklarni qabul qilishi sababli.

Belgilari: Tish yuzasida oq yoki sariq nuqta va chiziqlar. Emal silliq emasligi, chuqurchalar va bo‘shliqlar. Estetik muammolar: tish yuzasi notekis yoki rangsizlanishlar bilan bo‘lishi mumkin.

Davolash: 1. Konservativ usullar: Tish emalini remineralizatsiya qilish (maxsus gellar va pastalar yordamida).

Fluoridli preparatlarni qo‘llash.

2. Estetik va tibbiy muolajalar: Kompozit plombalar yordamida nuqsonlarni yopish.

Vinirlar (tish yuzasiga yupqa qoplamalar) qo‘yish.

O‘ta og‘ir holatlarda qoplama yoki protezlash.

Profilaktika:

Homiladorlik va bolalik davrida to‘g‘ri ovqatlanish.

D vitamini va minerallarga boy ovqatlar iste‘mol qilish.

Ortiqcha fluor iste‘mol qilishdan saqlanish.

Tishlarni muntazam parvarish qilish va stomatologga murojaat qilish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. KH.P. Yusupalikkhodjayeva . U.A. SHukurova . Fakultet Terapevtik stomatologiya darsligi Toshkent 2017. Stomatologiya.

2. Tibbiyot Fanlari Doktori Professor Sunnatillo Amrilloevich G‘affarov. Toshkent 2018. Web saytlar qo‘shimcha.

3. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.

4. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.

5. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.

6. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.

7. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."

